

QIZLARNING MUHABBAT BORASIDAGI TASAVVURLARINING OILA MUSTAHKAMLIGIGA TA'SIRI

Karimova Muxayyo Nazar qizi, Termiz davlat pedagogika instituti

Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi 2-kurs magistri.

karimovamuhayyo1991@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada muhabbat hissi haqidagi qarashlar, uning turlari, qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash va ularda muhabbat to‘g‘risida to‘g‘ri tasavvurlarni shakllantirish kelajakda nizoli oilalarning kamayishiga sabab bo‘lishi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek qizlari, oila, tasavvur, muhabbat, uyg‘un tip, oilaviy romantik tur, ma’naviy kambag‘al tur, lyudus, agape, hissiyot.

Qaysi mutafakkir, olim, shoir yoki yozuvchining asarlarini olib ko‘rmang, ularning kech qaysisi o‘z ijodiy faoliyatida inson hissiyotlarining eng kuchli, sirli va sehrli hisoblangan muhabbatni chetlab o‘tmagan. Insoniyat bor ekan muhabbat odamni sirli tuyg‘ular olamiga yetaklagan, uni yengib bo‘lmas g‘ovlardan o‘tishga va cho‘qqilarni zabit etishga undagan, uni rag‘batlantirgan, unga baxtiyor onlarni tuhfa etgan. Hatto o‘lim to‘shagida yotgan kishiga umid bag‘ishlab, hayot nashidasini surdirgan oddiy kunlariga kamalak jilolarini armug‘on etgan, uning atrof muhitini hamda o‘zligini idrok qilishi uchun turtki bo‘lgan. Shaxs ruhiyatida hatto o‘zini noma’lum bo‘lgan qudratini kashf etgan. Ko‘hna va hamisha navqiron hisoblangan bu insoniy tuyg‘u hammaga barobar aziz va muqaddasdir. Buyuk olim Abu Ali Ibn Sino o‘z asarlaridan birida kuchli muhabbatni izohlar ekan, uni kasallik sifatida ta’riflaydi va «davolanish» yo‘llarini ko‘rsatib o‘tadi: muhabbat o‘tida qiynalib azob chekayotgan ikki qalbni birlashtirishni maslahat beradi. Shuningdek u yana ma’lum obektiv sabablarga ko‘ra, ya’ni dindagi, salomatligidagi, yoshi va ijtimoiy kelib

chiqishidagi va shu kabi tafovutlarga asoslanib qalblarni birlashtirish imkonni bo'lmasa, unda odamning ruhiyatiga ko'ra turlicha davo choralarini qo'llashni tavsiya etgan. Masalan, hissiyotni boshidan kechirayotgan odamni sevgilisidan sovitish, hissiyotini zaiflashtirish, hissiyotini boshqa shaxsga ko'chirish, chalg'itish shular jumlasidandir. Shunisi taassuflanarlik, hozirgi kunga qadar muhabbat tushunchasiga yagona ilmiy ta'rif, tavsif berilmagan, bevosita unga bagishlangan ilmiy asarlar nihoyatda kam. Kishilar ongida bo'lgani kabi badiiy asarlarda kam muhabbat haqidagi turlicha, ko'pincha bir-biriga zid fikr va ta'riflarni ko'rish mumkin. Ba'zi mualliflar esa muhabbat hislarini sof ruhiyat komponenti sifatida bayon etib, undagi fiziologik komponentini inkor etadilar. Klassik asarlarda jumladan qadimgi hind asarlarida muhabbatga bir muncha to'liq ta'rif berilgan: «Aql mayli hurmatni tug'dirsa, qalb mayli do'stlikni, tana mayli xohishni tug'diradi. Aql, qalb va tana bir bo'lib, sevgi muhabbatni tug'diradi». Volgter: «Sevgi-muhabbat bu kam qalb, ham aql va tanaga bir vaqtini o'zida hujum qilinadigan eng kuchli zavqli his-tuyg'ulardan biridir», deb ta'rif beradi. Bu ta'rifni o'zaro taqqoslash va ruhiy tahlil qilish natijasida, sevgi-muhabbatda zaruriy ruhiy komponent bilan bir paytda fiziologik komponent ham mavjud degan fikr tug'iladi.

Qiz bolalarda esa ruhiy komponentning ustunligi saqlanib turadi. 17-25 yoshlardagi yigit-qizlarda o'z juftini topishiga intilish keskin ortadi. Sevish va sevilishga bo'lgan ehtiyojning ortishi natijasida yoshlar yorini tezroq qidirib topishadi va oila qurishadi, ba'zan bunday yoshlar qiska vaqt ichida ajralishga ulgurishadi. 25 yoshdan keyin qizlarning oila qurish imkoniyatlari ancha kamayib boradi. Unda bo'lgusi kuyovga (yigitga) nisbatan talabchanlik oshib, tanqidiy qarash kuchayadi. Endi unda hislarga berilish kamayib, uning o'rniga bo'lgusi yoriga butunlay boshqacha qaray boshlaydi. Bunday rukiy uzgarishlar yigitlarda kam kuzatiladi. Chunki bu

yoshda ularning ko‘pchiligi oliy o‘quv yurtini yoki o‘rta maxsus bilim yutrini bitirib, ma’lum bir ixtisosni egallagan, mehnat faoliyatini boshlagan bo‘ladilar. Qizlar ko‘prok yigitning bo‘y-bastiga, xulqiga, muomalasiga e’tibor beradilar. Ayollarda ruhiy intilish yetakchi bo‘lgani uchun ularning muhabbat hislari erkaklarnikidek tez orada so‘nmaydi va nisbatan uzoq davom etadi.

A.R. Lemexova (1973) qizlar va yigitlar orasidagi o‘zaro munosabatlarni o‘rganib, uni 3 turga buladi. 1.Uygun tur - qiz va ug‘il bolalarda axloqiy tushunchalar shakllangan, hissiyot madaniyati rivojlangan bo‘lib, ular muhabbatga, qarama-qarshi jinsga, oilaviy kayotga birmuncha aniq qarashadi. 2.Oilaviy romantik tur - bunda muhabbat, jinslar orasidagi munosabatlar hayotdan olingan holda, nihoyatda ideallashtirib olingan bo‘lib, to‘qnashganda barcha tasavvurlari parchalanib, ruhan tushkunlikka uchraydi. 3.Ma’naviy kambag‘al tur - bunda yoshlar muhabbatni noto‘g‘ri tushunadilar. Muhabbatda ma’naviy yaqinlikni, ruhiy omilning ahamiyatini ko‘ra bilmaydilar. Muhabbatda asosan rolni jinsiy yaqinlik o‘ynaydi, deb biladilar. Bunday toifadagi yoshlar ko‘p hollarda jinsiy hayotni erta boshlaydilar.

To‘laqonli sevgi-muhabbatni his etgan har bir inson, muhabbatning boshlang‘ich alangalangan va o‘zaro hurmat bosqichlarini bosib o‘tadi. Boshlang‘ich bosqich haqiqiy, istiqboli porloq. Bir umrlik sof muhabbatni boshlanishi yoki aksinchcha shunchaki bir havas bo‘lishi yoki qisqa sevgini biror bir ko‘rinishi bo‘lishi mumkin. Mazkur bosqich muhabbatning “Agape” turining boshlanishi yoki “Lyudus” turining o‘zginasi bulishi mumkin. Bu albatta, sevib qolgan odamning dunyoqarashiga, uning o‘ziga, xususiyatlariga, ya’ni tez sevib qolishiga hissiyotni paydo qilgan omillarga, ya’ni o‘z shaxsini tasdiqlash o‘zgalardan qolmaslik, bo‘sh vaqtini xursandchilik bilan o‘tkazish, oila, ota-onalar iskanjasи yohud nazoratdan ozod bo‘lish, erkinlikni qo‘lga olish, oila qurish, haqiqiy umr yo‘ldoshini

uchratib, bir umr unga g‘amxo‘rlik qilish, unga hayotini bag‘ishlash va xokazolariga bog‘lik. Birinchi bosqichni o‘sib, ikkinchi va uchinchi bosqichlarga o‘tishi zarurmi, yo‘qmi? - degan savol ko‘pchilikni qiziqtiradi. Birinchi bosqichda, yuqorida aytganimizdek, hamisha ham to‘laqonli muhabbat bo‘lavermaydi. Ikkinci bosqichga o‘tgandagina uni haqiqiy to‘laqonli muhabbat deyish mumkin. Birinchi bosqich ko‘p kishilarda kuzatiladi va ikkinchi bosqichga o‘tmasdan so‘nib qoladi. Muhabbatning bu bosqichi estetik didimizga bir muncha tug‘ri keladi. Ikkinci, ya’ni alangalangan bosqichdan birinchi bosqichga qaytilmaydi. Ikkinci boskichdan faqat uchinchi o‘zaro hurmat bosqichiga o‘tish mumkin holos. Qizlar hissiyotidagi ruhiy omil yigitlardagiga nisbatan kuchli bo‘lganligi, oilaviy hayot bilan bog‘lik oilaviy baxt qizlar hayotida muhim o‘rin egallashi sababli sevgan kishisiga fidoyilik, uning manfaatlarini o‘z manfaatlaridan yuqori baholash, sevgan kishisiga o‘zini bag‘ishlash fazilatining ifodalanishi sababli ko‘proq qizlarda bu bosqich ko‘proq o‘tadi. Hayotda ko‘p qizlarning aldanishi oqibatida homilador bo‘lib qolishi, yigitlarning boshqa qiz bilan turmush qurib ketishi bu bosqichning qizlarda nisbatan tez ketishini kursatadi. Buning sababini qizlarning shunchaki yengiltaklidan qidirmasligimiz, bu sevgi - muhabbatdagi ruhiy jarayonga bog‘lik ekanligini tushunishimiz lozim. Birinchi bosqichni nisbatan tezroq bosib utgan qizlar uchun ikkinchi bosqich yigitlardagiga nisbatan uzoq davom etadi. Buning sababini quyidagicha tushuntirish mumkin: avvalo qizlarda ruhiy omilning jinsiy omilga nisbatan ustunligi. Ko‘pincha jinsiy hayot ularda hissiyot ikkinchi bosqichda boshlanadi. Yigitlarning hissiyotida jinsiy omilning kuchliligi sababli ruhiy qoniqish tezroq kechadi, chunki ruhiy omil miqdorining o‘zi kamdir. - Jinsiy hayot kechirish bilan his-tuyg‘ular yigitlar uchun oila qurilgandan so‘ng paydo bo‘ladigan yangilik emas, chunki ularning ba’zilari uylanmasdan oldin ham ancha muncha tajribaga ega bo‘ladilar. Qizlar esa turmush qurbanlarida,

ya’ni jinsiy hayot kechira boshlaganlardidan so’ng ilgari ularga batamom noma’lum bo’lgan his-tuyg‘ular oilaviy hayotning ahamiyatini yanada oshiradi. Shu bois qizlarda ikkinchi bosqichning umri uzayadi. Uchinchi bosqichda hissiyotning kuchli va tashqi ifodalanishining bir muncha susayishi bilan muhabbat obektini ideallashtirilgan tarzda emas, balki sevgilisining shaxsidagi yutuq hamda kamchiliklarini obektiv idrok qilinishi bilan farq qiladi. Aksariyat sevishganlar va er-xotinlar uchun ikkinchi bosqichdan uchinchisiga o’tish ular orasidagi munosabatlarni saqlanib qolishiga shubha tug‘diradi. Bu shubha bosqichdan-bosqichga o’tishda emas, balki har bir sevishgan juftlarda muqarrar yuzaga keladigan sevgini o‘zaro hurmat bosqichiga o’tishini oldindan bilmaslik, o’tishdagi hissiy o‘zgarishlarini noto‘gri talqin etish, «Muhabbat obektini tanlashda adashdim shekilli», kabi yanglish fikrlarni yuziga kelishidadir. Aksariyat yosh oilalarda shunday vaqtda er-xotin orasida kelishmovchiliklar ko‘payadi va ko‘pchilik yoshlar bunday vaziyatda oiladan chetda yangi sevgi-mukabbat oboektini kidirib kolishadi. Ayrim oilalar esa bu o‘zgarishlarni noto‘gri talqin etib, ajralib kam ketishadi. Shuning uchun yoshlar muhabbat hislarini turli bosqichlarda bo‘ladigan o‘zgarishlarni oldindan bilishlari va o‘z hissiyotlarini oldindan qurbon qilmasliklari kerak. Uchinchi bosqich umrning oxirigacha davom etishi yoki turli va chetdan bo‘ladigan ta’sirlarga ko‘ra barham topishi mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki qizlarimizni muhabbat hislari, ularning tur va bosqichlari haqidagi hayotiy bilimlar bilan qurollantirilsa ular bo‘lajak oilalarida mazkur bilimlardan foydalansa, oilaviy inqirozlarga duch kelganda muvaffaqiyatli yechim topa oladi va ajrimlar soni sezilarli darajada kamayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Abdullayeva, S., & Eshmuradov, O. (2023). ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ САМООПРЕДЕЛЕНИЕ И ВЫБОР ПРОФЕССИИ УЧАЩИМИСЯ В

- ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ ЗНАНИИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8395>
- 2.Norbosheva, M. (2022). О ТЕХНИКЕ НАЧАЛА РАЗГОВОРА С КЛИЕНТОМ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ КОНСУЛЬТИРОВАНИИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7456>
3. Норбошева М.А. Игра в жизни человека и развитии ребенка // Психология № 2, 2014 с. 72-78
4. Jabborov, X., & Eshmuradov, O. (2023). ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИ ИШЛАРИДА МИЛЛИЙ ТАРБИЯ МАСАЛАСИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8394>
5. Norbosheva, M. (2022). МУЛОҚОТ ЖАРАЁНИДА МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛА ШАХСИНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК РИВОЖЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7459>
- 6.Eshmurodov, O. (2022). ЎЗБЕК ОИЛАСИ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ . Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7449>
7. Норбошева, М. А. (2021). ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАРНИНГ ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ САМАРАДОРЛИГИГА ТАЪСИРИ: DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.26.88.050> Норбошева Мехри Ачиловна ТерДу Педагогика институти Психология кафедраси мудири Психология фанлари номзоди, доцент. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (1-Махсус сон), 165-169.

- 8.Норбошева, М. О. (2021). Роль семьи и дошкольной образовательной организации в формировании личности ребёнка. *Наука и образование сегодня*, (7 (66)), 66-67.
9. Narbasheva, M. A. (2021). FOLK GAMES SERVES AS A PSYCHOSOCIAL DEVICE. *Theoretical & Applied Science*, (8), 220-225.
10. Narbasheva, M. A. (2021). The importance of pedagogical and psychological literacy of parents in preparing children for school education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(1), 728-732.
11. НАРБАШЕВА, М. А. (2017). Из истории детских народных игр Узбекистана. *Nazli TYFEKÇI, Ph. D. Ali KORKUT, Ph. D. Hasan KARACAN, Ph. D.*, 273.
12. Norbosheva, M.A. (2022). FOLK GAMES SERVES AS A PSYCHOSOCIAL DEVICE. World Bulletin of Social Sciences (WBSS), Vol. 8, March, 104-109.
12. Нарбашева, М. А.(2021). МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИНГ ОИЛА ҲАҚИДАГИ ТАСАВВУРЛАРИНИ ЎРГАНИШ. Педагогика ва психологияяда инновациялар. (6), 94-101
- 13.Нарбашева, М. А.(2021). Оилавий муносабатларнинг таълим-тарбия самарадорлигига таъсири. Таълим ва инновацион тадқиқотлар. (maxsus son) 165-169.
- 14.Ashurova, S. (2023). SOG'LOM PSIXOLOGIK TURMUSH TARZI TO'G'RISIDAGI TASAVVURLARINING ShAKLLANISHI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8314>
- 15.Ashurova Sh.F. A HEALTHY LIFESTYLE IN UZBEK FAMILIES FROM THE POINT OF VIEW OF ISLAM RELIGION . Emergent: JOURNAL OF EDUCATIONAL DISCOVERIES AND LIFELONG LEARNING (EJEDL). 2022.<https://ejedl.academiascience.org/index.php/ejedl/article/view/369> (52-56 p)
- 16.Eshmurodov, О. (2022). ОИЛА МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ.

- 17.Norbosheva, M. (2023). ИГРА КАК СРЕДСТВО ОВЛАДЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ РЕБЕНКА. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8384>
18. Eshmurodov, O., & Eshboyeva, B. (2023). O'SMIRLIK DAVRIDA JINSIY STERIOTIPLARNING YOSH XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8388>
19. Жабборов Хазрат Хусенович. Миллий тарбиянинг қадимий ва замонавий ижтимоий-психологик омиллари. **Таълим ва инновацион тадқиқотлар образование и инновационные. Халқаро илмий-методик журнал.** ИССЛЕДОВАНИЯ EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH № 9, 2022 сентябр. Б. 270-283 <file:///C:/Users/Hewlett%20Packard/Downloads/1636-%D0%A2%D0%B5%D0%BA%D1%81%D1%82%D20%D1%81%D1%82%D0%B0%D1%82%D1%8C%D0%B8-4531-1-10-20221110.pdf>
20. Хазрат Хусенович Джабборов Социально-психологические индикаторы национального воспитание. **Science and education scientific journal** ISSN 2181-0842. Volume 3, Issue 3 . March 2022. Page 1082-1089. <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/2883>
21. Kh.Kh. Jabborov. The study of the problem of national education by eastern thinkers. **International Journal of Pedagogics** (ISSN – 2771-2281) VOLUME 03 ISSUE 02 Pages: 14-20 SJIF IMPACT FACTOR (2021: 5. 705) (2022: 5. 705) (2023: 6. 676) OCLC – 1121105677/ Online Link:- <http://theusajournals.com/index.php/ijp/article/view/765>
22. Botirova Dilafruz Bozorovna International Journal of Mechanical Engineering. ISSN: 0974-5823. Vol. 7 No. 2February, 2022 –B 1838-1843. <https://www.scopus.com/sourceid/21101016918/>
23. Norbosheva, M. (2022). О ТЕХНИКЕ НАЧАЛА РАЗГОВОРА С КЛИЕНТОМ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ КОНСУЛЬТИРОВАНИИ. Журнал

Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от
<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7456>

24. Elamanovich, E. O. (2022). SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS AFFECTING THE UPBRINGING OF CHILDREN IN FAMILY RELATIONSHIPS. Science and Innovation, 1(4), 201-205.

25. Jabborov, X., & Eshmuradov, O. (2023). ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИ ИШЛАРИДА МИЛЛИЙ ТАРБИЯ МАСАЛАСИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от
<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8394>

26. Abdullayeva, S., & Eshmuradov, O. (2023). ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ САМООПРЕДЕЛЕНИЕ И ВЫБОР ПРОФЕССИИ УЧАЩИМИСЯ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ ЗНАНИИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от

<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8395>

27. Norbosheva, M. (2023). ИГРА КАК СРЕДСТВО ОВЛАДЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ РЕБЕНКА. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8384>

28. Eshmurodov, O., & Eshboyeva, B. (2023). O'SMIRLIK DAVRIDA JINSIY STERIOTIPLARNING YOSH XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от
<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8388>

29. Eshmurodov, O. (2022). ОИЛА МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ.

30. Eshmurodov, O., & Eshboyeva, B. (2023). O'SMIRLIK DAVRIDA JINSIY STERIOTIPLARNING YOSH XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2).

31. Eshmurodov, O., & Fazliddinova, U. (2023). OILADAGI IJTIMOIY PSIXOLOGIK MUHITNING BARQARORLIGI TA'MINLASHDA QAYNONA

- VA KELIN MUNOSABATLARINING O'RNI . Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8259>
- 32.Eshmuradov, O., & Ismoilova, G. (2022). OILAVIY MUNOSABATLARDA BOLALAR TA'RBIYASIGA TA'SIRI ETUVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR. *Science and innovation*, 1(B4), 201-205.
- 33.Yo'ldoshyev, S., & Sultonaliyeva, G. (2023). O'QUVCHI XULQ-ATVORNING PSIXOLOGIK KORREKSIYASI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8389>
- 34.Yo'ldoshyev, S. (2023). ZAMONAVIY PSIXOLOGIYANING PEDAGOGIKA BILAN UZVIY BOG'LIQLIGI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8390>